



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2026  
1-сон



# SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda  
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

**Tahririyat a‘zolari:**

**Mas‘ul kotib:**

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

**Muharrirlar:**

i.f.d., dotsent F.A.Safarov  
PhD, dotsent I.M.Pardaeva  
PhD, I.Sh.Ernazarova

**Texnik muharrir:**

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

**Korrektor:**

PhD, dotsent v.b.  
T.I.Yahyoyev

**Sahifalovchi:**

PhD, dotsent v.b.  
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba  
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida  
tarqatiladi.**

**Tahririyat manzili:**

140100, Samarqand shahar,  
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53  
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

**Tahrir hay‘ati raisi:**

**M.E.Po‘latov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,  
i.f.d., professor

**Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:**

**M.Q.Pardayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Tahrir hay‘ati a‘zolari:**

**M.M.Muxammedov** – SamISI professori, iqtisod fanlari  
doktori

**D.R.Zaynalov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**O.M.Murtazayev** – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,  
professor

**M.R.Boltabayev** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**R.X.Ergashev** – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

**B.K.G‘oibnazarov** – iqtisod fanlari doktori, professor

**I.S.To‘xliyev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**K.B.Urazov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Q.J.Mirzayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**B.I.Isroilov** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**G.M.Shodiyeva** – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

**S.N.Toshnazarov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**R.N.Normaxmatov** – SamISI professori, texnika fanlari doktori

**A.Bektemirov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**O.M.Pardayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**M.T.Alimova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Z.Dj.Adilova** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**Sh.O.Quvondiqov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**L.N.Xalikova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**F.A.Safarov** – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

**A.M.Karimova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**I.B.Mattiyev** – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

**B.F.Boronov** – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

**A.N.Xoliqulov** – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

**X.A.Raximov** – SamISI dotsenti, PhD

**S.A.Babanazarova** – SamISI dotsenti, PhD

**H.N.Ochilova** – SamISI dotsenti v.b., PhD

**I.R.Berdikulova** – SamISI dotsenti v.b., PhD

**A.Q.G‘apparov** – SamISI dotsenti v.b., PhD

<b>Xurshid Azamatovich Yunusov</b> Tadbir va ko‘ngilochar xizmatlarni rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish	154
<b>Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov</b> Logistika axborot oqimlarini sun‘iy intellekt asosida optimallashtirish	159
<b>Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev</b> Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligi	163
<b>Bekzodjon Sheraliyevich Oblakulov</b> Improving private education customer loyalty and brand trust through the implementation of digital marketing strategies	167
<b>Sadulla Shodiyevich Urazov, Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova</b> Ta‘lim muassasalarida tashkiy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta‘siri	170
<b>MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT</b>	
<b>Nuriddin Elamonovich Ernazarov</b> Aksiz solig‘ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolar	174
<b>Шавкат Собирович Олтаев</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида суверен фондларни самарали бошқариш масалалари	177
<b>Madina Sanjar qizi Khotamkulova</b> Corporate efficiency as a financial market participant	181
<b>BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT</b>	
<b>Komil Vaxromovich Urazov, Qahramon Hamidovich Vaxobov</b> Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobining o‘ziga xos xususiyatlari	186
<b>Ortiq Eshnazarovich Ernazarov</b> Xizmatlar sohasini chiziqli ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilish va prognozlashtirish	191
<b>Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев</b> Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 15 сон МХХС асосида даромадларни тан олиш	198
<b>Jamshidbek Axmad ug‘li Abdurasulov</b> Korxonalarni qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS asosida takomillashtirish	202
<b>TA‘LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA</b>	
<b>Умар Худайбердиев</b> Мактабгача ва мактаб таълими - илм ва муваффақият калитидир	209
<b>Bexzod Nematillayevich Gapparov</b> OTM kichik guruhlarda temperamentga yo‘naltirilgan pedagogik model	212
<b>Iltom Begmatdulobovich Mattiyev</b> Chet tillarni o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni	216
<b>Anvar Maxkamovich Soatov</b> Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining samaradorligi	221
<b>E‘TIBORGA MOLIK MASALALAR</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Рамазон луғати Бахт нима?	225

# MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT

Nuriddin Elamonovich Ernazarov — SamISI Moliya kafedrası dotsenti., PhD

## AKSIZ SOLIG‘INING BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aksizosti tovarlarni soliqqa tortishning iqtisodiy ahamiyati budjet daromadlarini ta‘minlashdagi ahamiyati tadqiq etilgan hamda aksiz solig‘ining huquqiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha muhim takliflar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq tizimi, aksiz solig‘i, soliq bazasi, budjet, soliq to‘lovchi, budjet tushumlari, monitoring tizimi, huquqiy asos, yashirin aylanma, soliq amaliyoti.

**Kirish.** Bugungi kunda aksiz solig‘i dunyoda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan soliq turlaridan biridir. Amaliyotdan bizga ma‘lumki, tabiat va insonlar uchun zararli bo‘lgan barcha turdagi mahsulotlar aksizosti tovarlar qatorida ushbu soliq tortiladi. Uzuluksiz va doimiy ravishda ommaviy iste‘mol qilinadigan adektiv xususiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarga solinadigan aksiz solig‘i, ma‘lum darajada, fiskal va rag‘batlantirish funksiyalarini samarali bajarib kelmoqda. Aksiz solig‘i davlat budjeti daromadlarining muhim va barqaror manbalaridan biri bo‘lib, uning dolzarbligi hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida yanada ortib bormoqda. Avvalo, ushbu soliq turi tamaki, alkohol, neft mahsulotlari va mobil aloqa xizmatlari kabi talab barqaror bo‘lgan tovar va xizmatlarga qo‘llanilgani sababli budjetga kafolatli va muntazam tushumlarni ta‘minlaydi.

Aksiz solig‘i nafaqat fiskal barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi, balki ijtimoiy va tartibga soluvchi funksiyani ham bajaradi. Zararli mahsulotlar iste‘molini cheklaydi, sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantiradi va bozor muvozanatini tartibga solishga xizmat qiladi.

Budjet xarajatlarining ortib borishi, iste‘mol bozorining kengayishi, soliq ma‘murchiligining raqamlashtirilishi va iqtisodiy siyosatning takomillashtirilishi sharoitida aksiz solig‘ining ahamiyati yanada oshib, u davlat moliyasining strategik tarkibiy qismi sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda aksiz solig‘ining budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning qarashlarida quyidagicha yoritilgan.

John Cawley va Sarah Danziger (2010)—Cawley va Danziger o‘z tadqiqotlarida aksiz solig‘ining zararli mahsulotlar iste‘molini cheklashdagi samaradorligini o‘rganib, uni sog‘lom muhitni saqlashda muhim vosita deb ta‘riflagan. Ular soliq stavkalarini nazorat qilish va monitoring tizimlarini kuchaytirish orqali davlat byudjetiga tushumlarni oshirish mumkinligini ta‘kidlagan[2].

Maysam Goudarzi va Ahmad Gholipour (2016) – Ushbu olimlar aksiz solig‘i va sog‘liqni saqlash sohasi o‘rtasidagi aloqani o‘rganib, soliqlarning iste‘mol odatlariga ta‘sirini batafsil tahlil qilgan. Ularning tadqiqoti aksiz solig‘ining jismoniy salomatlikka ijobiy ta‘sirini ta‘minlash bo‘yicha soliq siyosati uchun tavsiyalar beradi[3].

Alp Simsek va Stephanie Schmitt-Grohe (2018) – Ushbu tadqiqotchilar aksiz solig‘ining inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta‘sirini tahlil qilib, uning soliqlarni hisoblash va to‘lash jarayonlarida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatgan. Ular aksiz solig‘ining samaradorligini oshirish uchun soliq tizimlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish zarurligini qayd etishadi[4].

Mazkur mualliflarning sharhida aksiz solig‘ining nazariy va amaliy jihatlari, uning davlat byudjetiga ta‘siri, ijtimoiy tenglikni saqlashdagi o‘rni va xalqaro amaliyotda samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganish uchun asosiy manbalarni beradi. Ushbu tadqiqotlar aksiz solig‘i bo‘yicha yanada chuqur va keng qamrovli tahlillarni olib borish, amaliyotda uchraydigan aksiz solig‘ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolarni hal qilish bo‘yicha dolzarb tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani tayyorlashda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tizimli tahlili aksiz solig‘ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatga ega ekanligini o‘zida

ifoda etadi.

**Tahlil va natijalar.** Amaldagi tartibga muvofiq aksiz solig‘i mahsulotlar narxiga qo‘shiladi hamda davlat byudjetiga uning qiymatidan bir qismini kesib olishga imkon beradi. Mahsulotning ustiga qo‘yilgan aksiz solig‘i mahsulot ishlab chiqarishning samaradorligini va alohida xususiyatlarini anlatmaydi, balki aksiz solig‘i mahsulotlarni turidan kelib chiqib belgilanadi.

Bunday holatning davlat byudjeti daromadlari tarkibida aksizosti tovarlarni soliqqa tortishdan tushadigan byudjet daromadlari so‘ngi yillarda ayrim tovar pozitsiyalari kamaygan bo‘lsa, ayrim boshqa tovar pozitsiyalaridan tushadigan solikli tushumlar o‘shish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan. Ushbu holatning amaldagi holatni quyidagi 1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.

Davlat byudjeti daromadlari dinamikasida 2022–2026 yillar davomida davlat byudjeti daromadlari barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon qilmoqda. 2022 yilda davlat byudjeti daromadlari 201 863,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda ushbu ko‘rsatkich 231 720,7 mlrd so‘mga yetgan. 2024 yilda esa daromadlar hajmi 274 423,9 mlrd so‘mgacha o‘sgan. Prognozlarga ko‘ra, 2025 yilda davlat byudjeti daromadlari 308 547,0 mlrd so‘m, 2026 yilda esa 368 918,0 mlrd so‘mga yetishi kutilmoqda. Bu davlat moliya tizimida soliq tushumlari va iqtisodiy faollikning izchil o‘shib borayotganini ko‘rsatadi.

Bilvosita soliqlar davlat byudjeti daromadlarida muhim o‘rin egallaydi. 2022 yilda ularning hajmi 71 390,2 mlrd so‘mni yoki jami daromadlarning 35,4 % ini tashkil etgan. 2023 yilda bu ko‘rsatkich 83 325,8 mlrd so‘mga (35,9 %) yetgan. 2025–2026 yillar prognozida bilvosita soliqlar hajmi mos ravishda 104 674,0 mlrd so‘m (33,9 %) va 124 601,0 mlrd so‘m (33,8 %)ga yetishi kutilmoqda. Ularning umumiy ulushi nisbatan barqaror saqlanib qolmoqda.

1-jadval

2022–2026 yillardagi davlat byudjeti daromadlari tahlili[5]

№		2022-yil		2023-yil		2024-yil		2025-yil prognoz		2026-yil prognoz	
		Mrld	%	Mrld	%	Mrld	%	Mrld	%	Mrld	%
1	Davlat byudjeti daromadlari	201863,7	100	231 720,7	100	274 423,9	100	308 547,0	100	368 918,0	100
2	Bilvosita soliqlar	71 390,2	35,4	83 325,8	35,9	88 342,1	32,2	104674,0	33,9	124 601,0	33,8
3	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	52 189,4	25,8	57 885,3	24,9	59 281,2	21,6	71 838,0	23,3	88 859,0	24,0
4	Aksiz solig‘i	13 455,0	6,6	15 834,4	6,8	19 100,0	6,9	21 469,0	6,9	22 818,0	6,1

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bilvosita soliqlar tarkibida eng katta ulushni tashkil qiladi. 2022 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushumlari 52 189,4 mlrd so‘m (25,8 %) bo‘lgan. 2023 yilda esa 57 885,3 mlrd so‘mga (24,9 %) oshgan. Prognozlarga ko‘ra, 2025 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushumlari 71 838,0 mlrd so‘m (23,3 %), 2026 yilda esa 88 859,0 mlrd so‘m (24,0 %)ni tashkil etishi kutilmoqda. Bu qo‘shilgan qiymat solig‘ining byudjetdagi ahamiyati saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar ham yildan-yilga o‘shib bormoqda. 2022 yilda ushbu soliq tushumlari 13 455,0 mlrd so‘m (6,6 %) bo‘lgan. 2023 yilda 15 834,4 mlrd so‘mga (6,8 %) yetgan. 2024 yilda aksiz solig‘i 19 100,0 mlrd so‘m (6,9 %)ni tashkil etgan. 2025 yilda ushbu ko‘rsatkich 21 469,0 mlrd so‘m (6,9 %)ga yetishi prognoz qilinmoqda. 2026 yilda esa aksiz solig‘i tushumlari 22 818,0 mlrd so‘mga oshishi kutilmoqda, biroq uning umumiy daromadlardagi ulushi 6,1 % gacha biroz kamayishi mumkin. Quyida Davlat byudjeti va aksiz solig‘i ko‘rsatkichlarini taqqoslama tahlilini 2-jadvaldan ko‘rish mumkin.

Jadval ma‘lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, 2022–2026 yillarda davlat byudjeti daromadlari 1,83 barobarga oshishi prognoz qilinmoqda. Shu davrda aksiz solig‘i tushumlari 1,7 barobarga o‘sadi. Bu holat aksiz solig‘ining umumiy byudjet o‘shish sur‘atidan sekinroq o‘shishini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda aksiz solig‘i byudjet daromadlarining o‘shishiga hissa qo‘shmoqda, ammo asosiy drayver emas. 2022–2025 yillarda aksiz solig‘ining ulushi 6,6–6,9 % darajada barqaror. 2026 yilda ulush 6,1 % gacha pasayishi prognoz qilinmoqda. Kelgusida

**Davlat byudjeti va aksiz solig‘i ko‘rsatkichlarini taqqoslama tahlil[5]**

No	Yillar	Davlat byudjeti daromadlari (mlrd so‘m)	Aksiz solig‘i (mlrd so‘m)	Aksizning byudjetdagi ulushi (%)	Aksiz o‘shish sur‘ati (%)
1	<b>2022</b>	201 863,7	13 455,0	6,6	—
2	<b>2023</b>	231 720,7	15 834,4	6,8	+17,7
3	<b>2024</b>	274 423,9	19 100,0	6,9	+20,6
4	<b>2025 (prog.)</b>	308 547,0	21 469,0	6,9	+12,4
5	<b>2026 (prog.)</b>	368 918,0	22 818,0	6,1	+6,3

byudjet tarkibida qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa soliq turlarining ahamiyati ortib, aksizning nisbiy roli pasayishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Davlat byudjeti daromadlari oshirish borasida aksiz solig‘ining hisoblash amaliyotini takomillashtirish orqali erishish mumkin. Bu borada quyidagi muamollarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

-yashirish iqtisodiyotining yuqori ulushi tamaki, alkohol mahsulotlari va yoqilg‘i materiallar bozorida noqonuniy savdo hali ham mavjud. Kontrabanda mahsulotlari aksizdan tashqarida aylanadi, natijada byudjetga katta miqdorda tushum yo‘qoladi;

-aksiz stavkalarining tez-tez o‘zgarishi bu o‘zgarishi korxonalar rejalashtirish jarayonida noaniqlik tug‘diradi. Ba‘zan stavkalar iqtisodiy muhitga mos kelmaydi, natijada ayrim mahsulotlar narxining keskin oshishi iste‘molni pasaytiradi va soliq tushumlari kamayadi;

-markirovka va monitoring tizimidagi yetarli texnik qurilmalar, skanerlar va markirovka monitoringi sustligi, bu QR-kodli markirovka tizimining sekin joriy etilishi aksiz to‘lovlarining to‘liq yig‘ilishini ta‘minlamaydi;

-soliq organlarining aksiz bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi to‘liq integratsiya qilinmagan. Bu esa real vaqt rejimida monitoring tizimining yetishmasligi tushumlar bo‘yicha xatoliklarni kuchaytiradi va byudjetga aksiz solig‘idan tushumlar ulushining kamayishga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrda O‘RQ-886-sonli «2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6707765>
- 2.Cawley, J., & Danziger, S. (2010). "The Impact of Excise Taxes on Consumer Demand for Sugary Drinks." National Bureau of Economic Research, Working Paper No. 16712.
- 3.Goudarzi, M., & Gholipour, A. (2016). "The Effect of Excise Taxes on Health Behavior: Evidence from Iran." Iranian Economic Review, 20(4), 519-538.
- 4.Simsek, A., & Schmitt-Grohe, S. (2018). "Inflation and the Tax Treatment of Personal and Corporate Income." American Economic Review, 108(4), 993-1033.
- 5.<https://openbudget.uz> - O‘zbekiston Respublikasi «Ochiq Budget» portali

<b>Н. Эрнazarов</b>	<b>N. Ernazarov</b>
<b>Проблемы формирования бюджетных поступлений от акцизного налога</b>	<b>The Role of Excise Taxes in Budget Revenue Formation: Existing Problems</b>
<b>Аннотация.</b> В данной статье исследуется экономическое значение налогообложения подакцизных товаров, его роль в обеспечении доходов бюджета, а также изложены важные предложения по совершенствованию правового механизма акцизного налога.	<b>Abstract.</b> This article analyzes the economic importance of excise taxation, its role in securing government budget revenues, and outlines key proposals for improving the legal framework of excise tax regulation.
<b>Ключевые слова:</b> налоговая система, акцизный налог, налоговая база, бюджет, налогоплательщик, доходы бюджета, система мониторинга, правовая база, скрытый оборот, налоговая практика.	<b>Keywords:</b> tax system, excise tax, tax base, budget, taxpayer, budget revenues, monitoring system, legal framework, hidden turnover, tax practice.

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat  
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset  
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.  
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot  
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining  
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.